





51-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Misol. x ga karrali n ta sonni chiqarish dasturini tuzing.

Nº	Blok-sxema	Blok-sxema nomi	Dastur kodi
1		Algoritmning boshlanishi	
2	 	Kiritish bloki	x = int(input ()) n = int(input ()) i = 0
3		Sikl soni	for i in range(n):
4		Sikl tanasi Bajarish bloki	s=i*x
5		Chiqarish bloki	print(s)
6		Algoritmni tugatish	
	8 ga karrali 6 ta sonni chiqarish uchun n ga 6, x ga 8 qiymat berganimizda, 0 8 16 24 32 40 natijani chiqardi.		x=8 n=6 0 8 16 24 32 40

1. Quyidagi dasturiy koddagi iteratsiyalar (takrorlashlar) sonini aniqlang.

```
1. for i in range(487):  
    cms='Salom'  
2. for i in range(2,89):  
    cms=12  
3. for i in range(-17,15,4):  
    cms='dastur'  
4. for i in range(-58,0):  
    cms=4789
```

```
5. for i in range(73,161,2):  
    cms=2020  
6. for i in range(100,1982):  
    cms='UZB'  
7. for i in range(1874,21):  
    cms='4782'  
8. for i in range(-21,21,5):  
    cms='4782'
```

2. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar kvadratlari yig'indisini aniqlovchi dastur yozing.
3. $n \geq 2$ shartni qanoatlantiruvchi n soni berilgan. Ushbu ifodani hisoblovchi dastur tuzing. $d=1*2+2*3+...+(n-1)*n$
4. Bir nechta son berilgan. Ular orasida qancha 2 soni bor ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
5. $S=11+13+15+...+49$ yig'indini hisoblash dasturini tuzing.
6. n ta uchburchakni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. n –1 dan 9 gacha bo'lgan natural sonlarni qabul qiladi.

```
*  
**  
***  
****
```